"TASDIQLAYMAN"
"O'zmilliybank" AJ
Toshkent shahar Bosh boshqarmasi
Olmazor BXM
boshqaruvchisi v.v.b.
_____ U.Raxmatullayev

2026 yil "18" iyun

«O'zmilliybank» AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi
"Olmazor" bank xizmatlari markazida o'tkazilgan yig'ilish

B A Y O N I

2026-yil 18-iyun **Toshkent shahri**

Yig'ilish raisi: Boshqaruvchi v.v.b. – U.Raxmatullayev

Qatnashdilar: Boshqaruvchi o'rinbosarlari – O.Ramazonov.
Bosh buxgalter - U.Nurullayev
Olmazor BXMning barcha xodimlari.

K u n t a r t i b i:

1. "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasining 03.06.2026 yildagi 01-423/09-sonli xatida "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" yo'nalishidagi belgilangan vazifalar hamda "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'ining fuqarolar, tadbirkorlar va bank xodimlariga yo'llangan "Murojaatnoma"sini o'rganish.

(M.Shavkatov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan U.Raxmatullayev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kunidagi Oliy majlis deputatlari va O'zbekiston xalqiga yo'llangan "Murojaatnomasida" "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" yo'nalishida belgilangan ustivor vazifalar hamda 2025-yil 30-dekabr kunidagi PF-270-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonning tegishli bandlari ijrosini ta'minlash talablaridan kelib chiqib, Toshkent shahar Korrupsiyaga qarshi kurashish xududiy Kengashi majlisining 2026 yil 16 maydagi 3-sonli Bayonnomasida ijro uchun belgilangan vazifalarni yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirib o'tdi.

Bank xodimlariga "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'ining "Murojaatnoma"si to'liq o'qib eshittirildi. Murojaatnomaga asosan, Korrupsiya bu - demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadigan, inson huquqlarining buzilishiga olib keladigan, erkin bozor faoliyatiga to'sqinlik qiladigan, hayot sifatini yomonlashishi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik va boshqa salbiy xodisalar ildiz otib ketishi va gullashi uchun sharoit yaratib beradigan illat hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati orqali korrupsiyaviy huquqbuzarliklar bartaraf etiladi, mamlakatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi hamda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat qaror topadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaro va bank xodimining ichki ahloqiy-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma'rifatning o'zagini tashkil qiladi. Qonun talablarining to'laqonli amalga oshirilishi mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini oshirishga, rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Yig'ilish davomida, "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Olmazor BXM jamoasi davlatimiz rahbarining "Korrupsiyaga qarshi kurashish – barchamizning umumiy burchimiz" degan da'vati asosida o'z faoliyatida shaffoflik, xolislik va mas'uliyat tamoyillariga qat'iy amal qilib kelayotganligi ta'kidlab o'tildi.

Mamlakatimiz mustahkamligi, xalqimiz farovonligi, yurtning rivoji va gullab yashnashini, obod bo'lishini istagan har bir fuqaro hamda bank xodimi pora olish va berish illatidan xalos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda "halollik vaksinasi" bilan emlanishi kerakligi tinglovchilar e'tiboriga yetkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash davlat va jamiyat bir yoqadan bosh chiqargandagina samara berishi, har bir xodim va mijoz bank tizimida adolat, ochiqlik va ishonch muhitini ta'minlashda o'z hissasini qo'shishi lozimligi alohida aytib o'tildi.

Yig'ilish so'ngida Olmazor BXM boshqaruvchisi birinchi o'rinbosari U.Raxmatullayev yuqoridagi "Murojaatnoma"ni xodimlarga yetkazar ekan, ulardan o'z xizmat vazifalariga mas'uliyat bilan yondoshishlarini, mijozlar bilan muloqotda doimo xushmuomala bo'lishlarini, nojo'ya xatti-harakatlarni amalga oshirmasliklarini, hamkasblar bilan o'zaro munosabatlarda xushfe'l va xayrixoh bo'lishliklarini talab qildi.

Shu o'rinda Olmazor BXMning rahbar xodimlari, bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlarining o'rni kattaligini aloxida ta'kidlab, ular jamoada vujudga kelishi mumkin bo'lgan har qanday xuquqbuzarliklarni aniqlash va ularni profilaktika qilishga qaratilgan takliflarni o'z vaqtida BXM boshlig'iga xabar berib turishlarini talab qildi.

Xodimlar orasida korrupsiyaviy holatlarni oldini olishda birdan bir chora – "O'zmilliybank" AJ Boshqaruvi tomonidan berilayotgan topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarish, har bir yo'nalish bo'yicha chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarga to'liq rioya qilinishi lozimligi bilan bog'liq ekanligini yig'ilish qatnashchilariga alohida ta'kidlab o'tildi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, Yig'ilish

QAROR QILADI:

1. "O'zmilliybank" AJ Olmazor BXMda mehnat jamoasida sog'lom muhitni saqlash, xodimlar o'rtasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasizlikni shakllantirish maqsadida, qonun buzilish holatlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarda asosiy e'tibor barcha bo'lim boshliqlari bankka kelib tushadigan xujjatlar bilan ishlashda hamda kredit xujjatlarini rasmiylashtirish va kredit mablag'larini ajratishda qonun talablariga rioya etishlik, sansalorlikka yo'l qo'ymaslik, bank mijozlari bilan ishlashda bank rahbariyati tomonidan qo'yilgan talablarni og'ishmay bajarishlik, qolaversa o'z qo'l ostida ishlovchi

barcha xodimlarni ish faoliyati ustidan rahbarlik nazoratini kuchaytirish masalalariga qaratilsin;

2. Bankning bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari o'z vakolat doirasida xizmat vazifasiga kiradigan profilaktik amaliy tadbirlarni jadallashtirish, bankdagi muxit, xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, atrofdan kelib tushadigan salbiy ma'lumotlar bo'yicha rahbariyatga zudlik bilan tegishli bildirgi, ma'lumotlar berib borish vazifalari yuklatilsin;

3. Bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari tomonidan o'z xodimlarining xizmat majburiyatlarini qanday bajarayotganini muntazam ravishda nazorat qilib borish hamda xodimlarning xizmat vazifalariga oid bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaslik bo'yicha nazorat o'rnatilsin, shuningdek har qanday noqonuniy faoliyat turlari bilan shug'ullanishning huquqiy oqibatlari to'g'risida tushuntirishlar berilsin.

4. Bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari ushbu yo'nalishda qo'l ostidagi xodimlari uchun shaxsiy o'rnak bo'lishlari shartligi doimo uqtirilsin.

Yig'ilish kotibi: _____ **N.Gaziyeva**

Разжамутдинов У.
Рамазонов О.
Нурулаев У.
Турдиалиева Н
Кадирова Б.
Эмонали Шаруна
Обидова М
Расулова М
Эгамова Р. И.
Насимов А.К.
Мирзоев А.Т.
Иннатов Ж
Рустамхонов Д.Д.
Шайсанова Ж
Ибрагимов Ж
Лакмутдинов С.
Логиева
Исоев Н
Каримова И
Бобоев
Камилов З.
Гуломова З.
Партиева И
Мирзамедова Ж
Сайдахматова М
Ибрагимова Т.

Сайдалиев К.С.
Хайдарова
Нурбекова Н.
Могматова
Ахмаджонова Н.
Кабирова И.Х
Абдуллоев Х.Д.
Фаджодиева М.А
Собиров О.О
Джумаева М.
Мирходжаева Ч.Р
Даулатов Б.
Шермухамедов. И
Ханрабаева Д
Газиева Н
Убайдуллаева Ш.

O'ZMILLIYBANK
5 YOPI
4 YOPI
3 YOPI
2 PIQ

UNIVERSAL KASSA

МИССИЯ БАНКА
UNIVERSAL KASSA

NB
O'ZMILLIYBANK

O'ZMILLIYB